CHETDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI: TOVUSH TUSHISHI VA TOVUSH ORTISHI BILAN BOG‘LIQ FONETIK HODISALAR

Xolto‘Rayeva Aziza Oybekovna
Termiz davlat universiteti,
O‘zbek tili va jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24219856

Annotatsiya. *Mazkur maqolada chet tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlarning talaffuzi va imlosi, ularning o‘zbek tilining fonetik va orfografik me’yorlariga moslashish xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zlashma so‘zlar tarkibida kuzatiladigan tovush tushishi, tovush ortishi va tovush almashishi kabi fonetik hodisalar haqida nazariy ma’lumot beriladi. Xususan, tovush tushishi va ortishining yuzaga kelish sabablari, ularning og‘zaki hamda yozma nutqdagi ifodalanishi misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, adabiy talaffuz va imlo me’yorlari o‘rtasidagi farqlar, o‘zlashma so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma so‘zlar, fonetika, talaffuz, imlo, tovush tushishi, tovush ortishi, fonetik moslashuv, adabiy til me’yorlari.*

Abstract. *This article examines the pronunciation and spelling of loanwords in Uzbek and their adaptation to the phonetic and orthographic norms of the language. It discusses phonetic processes such as sound deletion, insertion, and substitution. Particular attention is given to the causes of sound deletion and insertion and their manifestation in spoken and written language. The article also highlights differences between standard pronunciation and spelling and discusses the correct usage of borrowed words in Uzbek.*

Keywords: *loanwords, phonetics, pronunciation, spelling, sound deletion, sound insertion, phonetic adaptation, standard language norms.*

Аннотация. *В статье рассматриваются произношение и правописание заимствованных слов в узбекском языке, а также особенности их адаптации к фонетическим и орфографическим нормам. Анализируются такие фонетические явления, как выпадение, вставка и замена звуков. Особое внимание уделяется причинам выпадения и вставки звуков, а также их проявлению в устной и письменной речи. Кроме того, освещаются различия между литературным произношением и правописанием и вопросы правильного употребления заимствованных слов.*

Ключевые слова: *заимствованные слова, фонетика, произношение, орфография, выпадение звуков, вставка звуков, фонетическая адаптация, нормы литературного языка.*

KIRISH. Til jamiyatning asosiy aloqa vositasi bo’lib, til va jamiyat ajralmas bir bo’lak desak mubolag’a bo’lmaydi. Til borki jamiyat bor, til bo’lmasa jamiyat ham bo’lmaydi, jamiyat bo’lmasa til ham bo’lmaydi. Til jamiyatning yuragi, til orqali biz axborot yetkazamiz, qabul qilamiz va saqlaymiz. Nafaqat bizning balki, boshqa tillarda ham lug’at boyligining kengayishida ichki imkoniyatlar bilan bir qatorda, boshqa tillardan so’z o’zlashtirish jarayoni ham muhim o’rin tutadi. Mamlakatlar o’rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar natijasida bir tildagi ayrim so’zlar boshqa tilga kirib keladi. O’zbek tili ham ko’p asrlik taraqqiyoti davomida arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan ko’plab so’zlarni o’zlashtirgan. Biz bu so’zlarni o’rganish davomida faqat so’zni yodlash emas, balki so’z shakli, tovush, yozuv, obraz, yoki tushuncha, ma’no, kontekst, nutqda qo’llash kabi jihatlarini ham o’rganamiz. Bu so’zlar tilimizning lug’at tarkibini boyitish bilan bir qatorda, uning fonetik va imloviy tizimiga ham muayyan darajada moslashgan.

O’zlashma so’zlarning talaffuzi va yozilishi har doim ham bir xil bo’layvermaydi. Ayrim so’zlar tarkibida tovushlarning tushishi, ortishi, yoki almashishi kuzatiladi. Ushbu maqolada aynan shu mavzuga oid tahlillar ko’rib chiqqiladi.

O’zlashma so’zlar va ularning o’zbek tiliga moslashuvi. Boshqa tillardan qabul qilingan va o’sha tilga moslashgan so’zlar o’zlashgan so’zlar deyiladi. Chetdan o’zlashgan so’zlar tilning o’sishiga yanada boyishiga yordam beradi. Ushbu so’zlar turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan madaniy va ijtimoiy munosabatlarini o’zida mujassam etadi. O’zbek tiliiga o’nlab balki yuzlab tillardan o’zlashgan so’zlar mavjud desak adashmagan bo’lamiz. Misol uchun arab tilidan afv,

ahbob, badiiyot, daloyilxona, fors-tojik tilidan shirtak, baxmalpo’sh, biyron rus tili va u orqali boshqa tillardan kirib kelgan shprist, samovar, jarkop kabi so’zlar mavjud.[1] O’zlashgan so’zlarning fonetik moslashuvi bir necha ko’rinishda bo’ladi. Jumladan, so’z tarkibidagi ayrim tovushlarning o’zgarishi tushib qolishi yoki paydo bo’lishi mumkin. Bu asosan shevalarda kuzatiladi. Misol uchun, ahbob so’zini olaylik bu so’zdagi oxirgi b tovushi “p” tarzda talaffuz qilinsada “b” yoziladi. Lekin, barcha o’zlashtirilgan so’zlarda bu hodisa yuz bermaydi, ayrim birliklar o’zbek tilida nisbatan barqaror shaklda qo’laniladi.

Nutq jarayonida yoki tilning asrlar davomida rivojlanishida tovushlar tarkibida yuz beradigan o’zgarishlar fanda **fonetik hodisa** deb ataladi. Fonetik hodisalar tuzilishiga ko’ra bir nechta guruhga bo’linadi:

So’z tarkibidagi muayyan tovushning talaffuzda yoki grammatik shakl hosil qilish jarayonida tushib qolishi- **tovush tushishi** deb ataladi. Misol uchun, rus tilidan o’zlashgan shprits so’zini olaylik bu so’z talaffuzda shpris deb aytiladi bunda “t” tovushi tushib qoladi, ammo yozuvda shprits deb yoziladi.

So’z tarkibga so’z yasovchi, sintaktik shakl yasovchi, egalik qo’shimchalari qo’shilishi natijasida tovush ortadi va bu fanda **tovush ortishi** hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan, “mavzu” so’zini olaylik va unga egalik “im” qo’shimchasini qo’shaylik “mavzu+im=mavzuyim” bunda “y” tovush ortishi yuzaga keldi talaffuzda qanday aytilsa yozuvda ham shu shaklda yoziladi. So’z tarkibida bir tovush bilan boshqa tovush almashishi fanda- **tovush almashish** hodisasi deb ataladi. Yurak, bilak so’zlariga “i” egalik qo’shimchasi qo’shilganda bevosita “k” “g” harfiga o’zgaradi talaffuzda qanday aytilsa shunday yoziladi.

Hiatus hodisasi: Bir necha unli tovushlarining so’zda ketma-ket kelish hodisasi tilshunoslikda hiatusning oldini olish jarayoni deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan unli so’zlarda talaffuzida undosh tovush ortishi hodisasi kuzatiladi. Ayniqsa, arab tilidan o’zlashgan so’zlarda ko’p kuzatiladi. Oila, koinot, tabiat, doira kabi so’zlar talaffuzda oyila, koyinot tabiyat, doyira deb tallaffuz qilinsada ammo yozuvda o’z shaklini yo’qotmaydi.[2]

Talaffuz va imlo o’rtasidagi munosabat. Talaffuz va imlo bir-biri bilan chambarchas bog’liq. Ular bir-birisiz bir butun bo’la olmaydi. Ammo ular tilning ikki me’yoriy jihatlarini ifodalaydi. Talaffuz so’zni og’zaki nutqda aytilishini o’rgansa, imlo esa yozuvda to’g’ri ifodalanishini belgilaydi. O’zlashma so’zlarda bu yaqqol ko’rinib turadi. Masalan “stol” so’zi ayrim so’zlashuv shakllarida “istol” deb aytilsa-da imloda “stol” shaklida yoziladi. O’zbek tilining imlo qoidalarini tasdiqlash haqidagi O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O’zbek tilining

[1] Vikilug’at: https://share.google/aSqiksDz9u3AtXsjF
[2] Hozirgi o‘zbek adabiy tili" akademik darsliklari: Universitetlarning filologiya fakultetlari uchun mo‘ljallangan darsliklarda (mualliflar: A. Hojiyev, M. Mirzayev, S. Usmonov va boshqalar)\\

asosiy imlo qoidalari“ yozma me’yoriy asoslaridan biri deb keltirib o’tilgan.[3] Ushbu hujjatda unlilar va undoshlar imlosi, asos va qo’shimchalar yozilishi hamda boshqa orfografik qoidalari belgilangan. O’zlashma so’zarning yozilishida ham mazkur me’yorlariga rioya qilish talab etiladi. Shu boisdan og’zaki nutqda uchraydigan fonetik o’zgarishlarni yozma nutqqa bevosita ko’chirish ham har doim maqul bo’layvermaydi. Shu sababli qarorga muvofiq, undan kelib chiqqan holda amal qilish kerak.

O‘zlashma so’zlarda fonetik hodisalarning ahamiyati. Fonetik jarayon tarixiy taraqqiyotni chuqur hamda izchil o’rganishga yordam beradi. Xususan boshqa tillardan kirib kelgan so’zlarning o’zbek tili talaffuziga qanday moslashishi bevosita fonetik hodisalarni o’rganish orqali aniqlanadi. So’zlarni shunchaki yodlab qo’yish emas, balki uni har jihatdan o’rganish kerak. Bu jarayonni tilshunoslikda “psixolingvistika” bo’limi orqali o’rganamiz. Biz bu bo’lim orqali so’zni lisoniy tasavvur qilamiz. U so’zni eshitganimizda ongimizda obraz paydo bo’ladi, shakli, talaffuzi, ma’nosi gavdalanadi.

Xulosa: zlashma so‘zlardagi fonetik hodisalarni to‘g‘ri anglash v Xulosa qilib aytganda, tillarning o‘zaro integratsiyasi natijasida kirib kelgan chet so‘zlar shunchaki tayyor qolip emas, balki jonli organizm desak adashmagan bo’lamiz. Ular o‘zbek tilining boy fonetik qonuniyatlari, xususan, tovush tushishi, ortishi va almashishi kabi filtrlardan o‘tib, ona tilimizning ichki tabiati va talaffuz me’yorlariga moslashadi. Maqolada tahlil qilib o’tilganidek, og‘zaki nutq hamda yozma imlo o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlash — tilimizning sofligi va jozibasini asrashlikdan dalolat beradi. Shubhasiz, ularni imlo qoidalariga rioya qilgan holda qo‘llash nafaqat nutqiy madaniyatimizni yuksaltiradi, balki o‘zbek tilining o‘z qonun-qoidalariga ega, qudratli va mustaqil til ekanligini yana bir bor isbotlaydi. O‘zlashma so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish uchun ularning kelib chiqishi, fonetik tarkibi, talaffuz xususiyatlari va adabiy imlosini o’rganishimiz hamda jamiyatda qo’llashimiz kerak. Bu esa nutq madaniyatini rivojlantirish, imloviy savodxonlikni oshirish hamda o‘zbek adabiy tili me’yorlariga rioya etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kucker, Mc Murray va Samulson so’z o’rganish jarayonini shunday misol orqali tushuntirib o’tishgan. Birinchi uchrashuvda so’zni yodlang va foydalanging, keyingi uchrashuvda bilimingizni mustahkamlab va uni aniqlashtiring deb ta’kidab o’tishgan.[4]

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”. https://lex.uz/uz/docs/-1625271
2. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi. Fonetik hodisalar va tovush orttirilishiga oid elektron lug‘at materiallari. https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=is
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili" akademik darsliklari: Universitetlarning filologiya fakultetlari uchun mo‘ljallangan darsliklarda (mualliflar: A. Hojiyev, M. Mirzayev, S. Usmonov va boshqalar).
4. Samuelson, L. K. va McMurray, B. (2017). What Does It Take to Learn a Word?
5. https://doi.org/10.1002/wcs.1421

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”. https://lex.uz/uz/docs/-1625271

[4]Samuelson, L. K. va McMurray, B. (2017). What Does It Take to Learn a Word? https://doi.org/10.1002/wcs.1421